

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ME'MORCHILIGI****Begzod Begijanovich IMINOV**

dotsent

falsafa fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

**Annotatsiya**

Maqolada Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari ilmiy tahlil qilingan. Samarqand va Hirotda barpo etilgan masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroylar va bog'larning o'ziga xosligi yoritilgan. Temuriylar davri ma'naviyatining ajralmas bo'lagi sanalgan me'morchilik va binokorlik san'ati bu davrda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilganligi asoslangan.

**Tayanch so'zlar:** sivilizatsiya, temuriylar, me'morchilik, "Shifoia", me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at va adabiyot, masjid, xonaqoh, hammom, sardoba, karvonsaroy, gumbaz, Registon maydoni, qurol-yarog'.

**АРХИТЕКТУРА ЭПОХИ АМИРА ТИМУРА И ТИМУРИДОВ****Бегзод Бегижанович ИМИНОВ**

доцент

доктор философии по (PhD) философским наукам

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

**Аннотация**

В статье проводится научный анализ масштабных строительных и благоустроительных работ, осуществлённых в Мавераннахре и Хорасане в период правления Амира Темура и Темуридов. Рассматриваются особенности мечетей, медресе, ханак, караван-сараяв и садов, возведённых в Самарканде и Герате. Архитектура и зодчество, являвшиеся неотъемлемой частью духовной культуры эпохи Темуридов, в этот период достигли своего наивысшего расцвета.

**Ключевые слова:** цивилизация, темуриды, архитектура, «Шифоия», архитектура, орнаментальное искусство, изобразительное искусство и литература, мечеть, ханака, хаммам, сардоба, караван-сарай, купол, площадь Регистан, оружие.

O'zbek xalqi o'zining boy tarixi, buyuk o'tmishiga ega. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk daholar o'z ilmiy-ijodiy faoliyatlari bilan insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganlar. Bu borada uyg'onish davri olimlarining mashaqqatli mehnatlari, xalqimiz ma'naviyati hazinasiga qo'shgan

hissalarini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi [1; 255].

Amir Temur va temuriylar davri me'morchiligi Markaziy Osiyo tarixida "Temuriylar renessansi" deb ataluvchi yuksak madaniy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davrda me'morchilik o'zining ulug'vorligi, murakkab muhandislik yechimlari va betakror bezaklari bilan ajralib turgan.

Milliy mafkuramizni shakllantirish va rivojlantirishda xalqimiz madaniy qadriyatlarini tiklash, ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zero, tarixiy madaniyatimiz, boy ma'naviy qadriyatlarimiz mustaqil O'zbekiston milliy mafkurasining poydevori bo'lmog'i lozim. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi va rahbarligida 1996-yilda o'tkazilgan Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ilmiy hayotida tarixiy va olamshumul voqea bo'ldi [11; 58]. Yubiley tadbirlarda, «YUNESKO» doirasida xalqaro miqyosda o'tkazilgan tantanalarda yurtboshimiz qilgan ma'ruzalarida Amir Temur shaxsiyati va davriga doir masalalarga, jumladan, o'sha davr madaniyatiga chuqur ilmiy va haqqoniy baho berildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amir Temurni buyuk sarkarda, adolatli hukmdor va milliy g'urur timsoli sifatida yuksak baholab, uning harbiy strategiyasi, "Tuzuklari" va bunyodkorlik ishlarini o'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi [13; 3].

Temuriylar davri arxitekturasini yuksak bilim namunasi sifatida chuqur va sinchkovlik bilan o'rganilsa, bitta fan sifatida o'qish va o'rganish mumkin. Temuriylar davri arxitekturasi temuriylar saltanati vujudga kelishi bilan bog'liq va shu saltanat bilan teng yoshda hisoblanadi. XIV–XVI asrlarda vujudga kelgan bu me'moriy uslub o'zining takrorlanmasligi hamda hozirgi qurilish me'yoriy hujjatlariga to'la javob berishi bilan ajralib turadi. Temuriylar saltanatining asosiy joylashuv hududlari Movarounnahr (hozirgi O'zbekiston) va Katta Xuroson (Sharqiy Eron va Shimoliy Afg'oniston) hududlarini tashkil qilgan. Asosiy qurilish

va bunyodkorlik ishlari davlat poytaxti Samarqand shahrida olib borilgan. Bunday bunyodkorlik ishlari hali ham o'z holicha, qayta rekonstruksiya va restavratsiya qilish yo'li bilan uning jozibasi hamda mahobati saqlab qolingan. Amir Temur ko'rsatmasi hamda buyrug'iga asosan, fan tili bilan aytganda, uning loyihasiga ko'ra qurilgan inshootlar, bunyodkorlik ishlari ham ijtimoiy, ham siyosiy ahamiyatga ega edi [3; 34–37].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviyat masalasiga obyektiv-xolisona baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'rinda faylasuf, tarixchi va adabiyotchi olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Masalan, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ularning ma'naviy merosini, shaxsiy sifatlarini o'rganishda B.Ahmedov, A.Ahmedov, T.Fayziyev, D.Yusupova, B.Usmonovlarning xizmatlari beqiyos bo'ldi [2; 47–51].

Atoqli olim B.Ahmedov temuriylar davri davlatchiligi masalalarini o'z asarlarida yoritib berdi.

Sharqshunos olim T.Fayziyev esa o'z asarlarida temuriylar davrida ayollarga munosabat, temuriy malikalar haqida fikrlar bildirib o'tdi.

Temuriylar davri ma'naviyatining ajralmas bo'lagi sanalgan me'morchilik va binokorlik san'ati bu davrda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi.

Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishg'ol etgan boshqa mamlakatlarda katta boyliklarni qo'lga kiritib, ularni Movarounnahrda shaharlarning obodonchiligiga sarfladi.

XV asrda temuriy shahzodalar o'rtasida avj olib ketgan o'zaro kurashlar va vaqti-vaqti bilan sodir bo'lib turgan harbiy yurishlar mamlakatning ichki hayotiga salbiy ta'sir etsada, biroq Shohruh (1405–1474), Ulug'bek (1409–1449), Abu Said (1451–1469) va Sulton Husayn (1469–1506) hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatda ma'lum darajada qaror topgan osoyishtalik tufayli qadim zamonlardan davom etib kelayotgan ilm-fan va ma'naviyat yanada jonlandi [9; 56].

Bu davrda Movarounnahrning poytaxti Samarqandda ham, Xurosonning markazi Hirotda ham Amir Temur an'analari davom ettirilib, olimlar-u fuzalolar,

shoirilar-u bastakorlar, me'morlar, binokorlar, naqqoshlar va mohir hunarmandlarning kattagina guruhi to'plangan edi. Movarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm-fan va ma'naviyatning taraqqiyotida zamonasining ma'naviy muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug'bekning roli va hissasi nihoyatda buyukdir. Movarounnahr va Xurasonning boy va serqirra ma'naviyati va islom dunyosining ma'naviy va an'analarga suyangan hamda o'z davrining madaniy tajribalaridan to'la foydalanib, uni o'zlashtirgan Ulug'bek mamlakatning ravnaqi, ayniqsa, uning ma'naviy kamolotida ilm-fan va san'atning naqadar muhimligini yaxshi tushunardi. Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi.

Movarounnahr va Xurason XV asr me'morchiligida o'zining mukammalligi va bajargan vazifasi jihatidan jamoat binolari orasida, ayniqsa, shifoxonalar, hammomlar, istirohat bog'lari muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy "Shifoia"ni qurdirishga kirishar ekan, avvalo, uning zamonida qarovsiz qolgan Hirot Dorushifosini qayta tiklab, uni obod etadi [6; 87–89].

Temuriylar davrida Samarqand va Hirotida me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at va adabiyot nihoyat darajada taraqqiy etadi. Bu ikki poytaxt shaharlarida jamoat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ko'plab hashamatli binolar qad ko'taradi. Temuriy hukmdorlar orasida, ayniqsa Ulug'bek bobosi Amir Temurdek bunyodkor bo'lib, mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. U hukmdorlik qilgan davrda qator masjid, xonaqoh, hammom, sardoba, karvonsaroylar qad ko'taradi. Mozorat va ziyoratgohlar obod etiladi. Avvalambor, Amir Temur davrida qurib bitkazilmagan talaygina binolarni qurib bitkazadi. Go'ri Amirning kirish peshtoqi, Shohi Zinda ansamblidagi ba'zi bir maqbaralar, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz masjidi, Yassidagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga qurilgan binolar shular jumlasidandir.

Ulug'bek, ayniqsa Samarqandni obod qilishga alohida e'tibor beradi. Uning davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllandi. U qaytadan loyihalashtirilib, maydonda Ulug'bek madrasasidan tashqari, peshtoqli va ulkan

gumbazli xonaqoh, karvonsaroy, devoridan tortib, ustun va toqilarigacha o‘ymakor yog‘ochlardan ishlangan “Masjidi Muqqata” bino qilinadi. Ikki yuz o‘n gumbazli “Ko‘kaldosh” jome’ masjidi qad ko‘taradi. Bu oliy imoratlardan faqat Ulug‘bek madrasasigina bizning davrimizgacha saqlanib qolgan, xolos. Madrasa me‘morlik jihatidan musulmon Sharqida ana shu turdagi binolarning klassik namunasi hisoblanadi [4; 45–49].

Ulug‘bek davrida yana bir yirik me‘moriy kompleks – Shohi Zinda ansambli to‘la qurib bitkaziladi. Bu me‘moriy kompleksning markaziy qismida qad ko‘targan naqshinkor obidalar, ayniqsa “Qozizoda Rumi” maqbarasi me‘moriy jihatdan eng maftunkor obida hisoblanadi. U peshtoqli ulkan gumbazli ziyoratxonadan iborat bo‘lib, koshinkor va beqiyos jilvali rango-rang parchinlar bilan naqshlangan.

Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan me‘moriy binolar ichida Samarqand rasadxonasi alohida o‘ringa ega. Mirzo Ulug‘bek 1420–29-yillari Samarqand yaqinidagi Obi-Rahmat tepaligiga rasadxona qurdirdi. Bino uch qavatli to‘garak shaklida bo‘lib, diametri 46–40 metr, balandligi 30 metrcha edi. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur ham guvohlik beradi. Rasadxona haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha yozadi: “Samarqandning shimoliy tomonida sal sharqqa og‘ishgan joy tanlandi, mashhur munajjimlar bu ishni boshlab yuborish uchun yulduz ko‘rsatgan xayrli kunni aniqlab berdilar. Bino qudrat asosi, ulug‘vorlik negizidek pishiq qurildi. Poydevor va ustunlar tog‘ asosidek shunday mustahkam qilindiki, ular to mashhar kunigacha na joyidan jilar va na qular edi. Baland qurilgan bu muhtasham imorat xonalarining ichiga solingan rasm va beqiyos suratlarda to‘qqiz falakning daraja, daqiqa, soniya va soniyaning o‘ndan bir ulushlari ko‘rsatilgan yetti qavat osmon gardishi, yetti sayyora va turg‘un yulduzlar tasvirlangan osmon gumbazi, iqlimlar, tog‘lar, daryolar, sahrolar, xullas olamga tegishli hamma narsalar tasvirlangan edi. Shundan keyin Quyosh va sayyoralarning harakatini kuzatish, ko‘rganlarni yozish va qayd qilishni boshlab yuborishga farmon berildi” [5; 54–59].

Chunki u ulkan Sharqning ko‘p asrlik ilm-u ma’rifat va madaniyati tarixida shuhrat topgan rasadxonalari orasida Movarounnahrda qad ko‘targan-u yakka-yu yagonadir. Sharq mamlakatlarida ilm-u ma’naviyatni, xususan astromomiya va matematika fanlarining rivoji yo‘lida uning bajargan xizmatlari nihoyatda buyukdir. Jamoat binolari qurilishi me’morchilikda Registon maydonida bino qilingan “Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi”, “Bog‘i maydonda” qad ko‘targan “Chil ustun” va “Chinnixona” saroylari, ayniqsa diqqatga sazovordir. “Tillakori madrasasi” o‘rnida bo‘lgan Mirziyi karvonsaroyida ko‘pincha xorijiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar qo‘nishgan. Boburning ta’riflashicha, “Chil ustun” va “Chinnixona” saroylari nihoyatda muhtasham va ko‘rkam bo‘lgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandda hashamatli qurilishlar anchagina cheklangan bo‘lsada, ikki qavatli “Xo‘ja Ahror Madrasasi”(1456), “Ishratxona”(1464) va “Oqsaroy” (XV asr 70-yillari) bir nechta me’moriy imoratlar qad ko‘tardi [8; 203].

Demak, me’morchilik va amaliy san’atda asriy an’analar yanada chuqurlashtirilib, yuqori darajali ma’naviyatni anglatuvchi o‘ziga xos uslub yaratildi. XIV asr qurilish san’atining ajoyib durdonalari minglab kishilar mehnatining mevasidir. Ularda xalq ichidan yetishib chiqqan mohir me’mor, naqqosh va bannollarning aql-idroki, mahorati va qurilish sohasidagi ko‘p asrlik tajribasi o‘z ifodasini topgan. Bu me’moriy obidalarning mahalliy ustalari go‘zallikning obyektiv qonunlarini chuqur bilganlar, o‘z ifodalarida davrning g‘oyasi va ruhini bera olganlar. Ularning me’moriy usuli ham, naqshi ham o‘ziga xos xislat, fazilatlariga egadir.

Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o‘tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko‘tarilgan Movarounnahr va Xurosonning butun tarovati yorqin manzarasi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho‘qqisi hisoblangan temuriylar davri nafaqat shu mintaqa doirasida, balki

umumjahon miqyosida o‘ziga xos yuksak bosqich bo‘ldiki, uning qudratli aksadosi minnatdor avlodlarning dili va tafakkurini hamon nurlantirib kelmoqda.

XV asrda temir buyum, qurol-yarog‘ va asboblar yasash yuqori darajaga ko‘tarildi. Metall buyum yasovchilarning aksariyati uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol-yarog‘ va asbob-uskunalar yasovchi temirchilardan iborat edi. Ular orasida mix yasovchilar, taqachilar, sim cho‘zuvchilar va pichoqchilar kabi turli xil buyumlar yasovchi ustalardan iborat bo‘lgan [12; 223–225].

Bu davrda Samarqand davlatning poytaxti sifatida avvalgidek, qurol-yarog‘ yasaladigan markaz bo‘lib qoladi. Shaharda, hatto maxsus sovutsozlar mahallasi tashkil topgan edi. Poytaxt qurolsozlari hujum va mudofaa qurol-yarog‘lari: qilich, qalqon, o‘q va yo‘llar, dubulg‘a va sovutlar yasardilar. Hokimlar, sarkarda, amirlar uchun yasalgan maxsus qurol-yarog‘lar oltin qoplangan, qimmatbaho toshlar qadalgan, naqshinkor bo‘lardi. Ibn Arabshohnning yozishicha, Ami Temur Go‘ri Amirga dafn qilingach, uning devorlariga oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyim-boshlari, qurol-yarog‘lari va anjomlari osib qo‘yilgan edi. Buymlarning eng kichigining bahosi butun bir viloyatning yillik solig‘ini qoplar edi. Mamlakatning katta-kichik shaharlarida misgarlik ham ancha-muncha rivoj topgan edi. Mis va jezdan turli xil uy-ro‘zg‘or buyumlari yasalar va mayda mis chaqalar zarb qilinar edi. 1399–1404-yillarda bino qilingan Bibixonim jome‘ masjidi eshiklari yetti xil metall qorishma (haftjo‘sh) bilan qoplangan edi. Shahar zargarlari oltin, kumush hamda jez qotishmalaridan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho taqinchoqlar yasaydigan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov beruvchi mohir ustalar soni ko‘payadi. Odatda, naqshinkor badiiy buyumlar nozik hunarmand zargarlar mutlaq mulkdorlarga xizmat qilishar va ular bilan yaqindan aloqada bo‘lardi [10; 202–205].

Shukrlar bo‘lsinki, mustaqillik tufayli buyuk bobomiz haqidagi haqiqatning ro‘yobga chiqishi, tantanasi kun tartibiga qo‘yildi. Bu millat tarixi, Vatan taqdiri uchun nihoyatda muhim edi. Prezidentimiz va ularning atrofida jiplashgan tarixchilarimiz, ziyolilarimiz sa‘y-i harakatlari natijasida buyuk bobomiz haqidagi haqiqat tiklandi, adolat qaror topdi. Bugun biz o‘zining bemisl aql-u tafakkuri,

shahd-u shijoati bilan jahon taraqqiyotiga, tarixiy jarayoniga ulkan taʼsir koʻrsata olgan, madaniyatlar barpo boʻlishida xolis xizmat etgan siymo haqida baralla soʻz deya olamiz. Gʻururimiz, faxr-u iftixorimizni yashirib oʻtirmaymiz. Vatan uzra Amir Temur Koʻragonning oʻlmas ruhi kezib yurganini har lahza his etamiz.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Amir Temur shaxsiyati jahon tarixida juda kam uchraydigan noyob hodisalardan biridir. Bunday ulugʻ zotning dunyoga kelishi chindan ham zamon zarurati va talabi edi, boshqacha aytganda tarix va zamonning oʻzi oʻz qahramonini jahon maydoniga olib chiqdi. “Buyuk shaxslarni millat qaygʻusi, xalq dardi yaratadi” – deb taʼkidlagan edi Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov. – “Dunyoning qaysi yerida, qaysi zamonida Amir Temurdek buyuk sarkarda, Amir Temurdek buyuk davlat arbobi, Amir Temurdek ilm-fan, maʼnaviyat, ruhoniyyat homiysi boʻlgan?”

Haqiqatan ham, oʻrta asrlar sharoitiday murakkab bir davrlarda yashab, oʻzining shaxsiy manfaatini emas, balki Vatan ravnaqini birinchi oʻringa qoʻyish, parokanda yurtni birlashtirish, ilm-u fan homiysi-yu, bunyodkor boʻla olish Amir Temurning favqulotda bir shaxs ekanligini koʻrsatadi. U hali koʻplar dunyoning keng-u torligi haqida tasavvurga ham ega boʻlmagan bir paytda jahonning qudratli davlatlari, xususan Yevropa bilan teng huquqli aloqa qilgan, uzoqni oʻylab, elchilar yuborish, savdo yoʻllarini ochish, doʻstona munosabatlar oʻrnatish, boshqacha aytganda, diplomatiya, kengash, kelishuv, muzokaralar yoʻli muhimligini, bularsiz dunyoning kelajagi barqaror boʻlmasligini anglab yetgan edi. Sohibqiron oʻz “Tuzuklar”ida davlat ishlarining toʻqqiz ulushini kengash yoʻli bilan ado etganligini, bir ulushini qilichga qoldirganligini, yaʼni chorasi topilmagan taqdirdagina, qilichga qoʻl uzatganini bejiz taʼkidlamagan edi [7; 47–52].

Yevropa va Amerikada jahon tarixida oʻtgan toʻrtta shaxsni yonma-yon keltirishni yaxshi koʻradilar. Bu shaxslar: Iskandar, Atilla, Chingizxon va Tamerlan (Amir Temur)lardir. Fransuz olimi Rene Grussening 1939-yilda Parijda nashr etilgan kattagina kitobi xuddi shunday “Sahro saltanati. Atilla, Chingizxon, Tamerlan” deb atalgan edi. Bu haqda Amerika Qoʻshma Shtatlaridagi Vashington

Universtetida “Amir Temur davrida madaniy hayot” mavzusida aynan shu mavzuga uzoq to‘xalishgan edi .

Xulosa qilib aytganda, temuriylar sulolasi hukmronligi davri nafaqat tarqoq xalqlarni birlashtirdi, balki ularda yagona madaniyat, yagona ma’naviyatni shakllantirdi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Ma’naviyat – shunday buyuk kuchki, uni na qurol bilan, na yovuzlik bilan mahv qilib bo‘lmaydi, yillar o‘tgan sari rivoj topib, yangilanib boraveradi”. Amir Temur va temuriylar davri ma’naviyati bizning bugungi kunimiz ma’naviy hayotida eng muhim asos, poydevor vazifasini o‘tamoqda. Bu davrda o‘rganilgan yo‘lga qo‘yilgan ilm-fan rivoji hozirgi vaqtdagi ilmiy yutuqlarimizning zamirida yotadi. Masalan, Mirzo Ulug‘bekning “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” asaridan bugungi kunga kelib dunyoning nufuzli oliygohlarida, bilim yutrlarida qo‘llanma sifatida, ma’ruzalar ko‘rinishida foydalanilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 440 б.
2. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 236 б.
3. Abdurahmonov D. Amir Temur davri arxitekturasi – temuriylar sulolasi me’morchiligining boshlanish bosqichi // Scientific Journal Construction and Education. ISSN 2181-3779, 2024-yil Maxsus son 2. 605 bet.
4. Абдураззоқов А. Темурийлар меъморчилигида амалий санъат тарихи. – Тошкент, 2002.
5. Бахрамов Ғ., Тўхтасинов Ш. Темур ва темурийлар меъморчилиги тарихи. – Тошкент, 2018.
6. Каримов Ш. Темурийлар тарихи ва ҳозирги замон. – Тошкент, 2021.
7. Мирзааҳмедова Ш. Бобур ва бобурийлар илмий мероси. – Андижон, 2003.
8. Nizomov Sh. Temuriylar me’morchiligi. – Samarqand, 2022.
9. Содиков А. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Тошкент: Мерос, 1997.
10. Сойипов А. С. Ҳирот меъморчилиги. – Тошкент, 1998.

11. Файзиев Т. Темурий маликалар. – Тошкент: Фан, 1996.
12. Gulomov Sh. Temuriylar davrida jang san'ati. – Toshkent, 2024.
13. kun.uz. Temuriylar davri madaniy obidalari. 2025.02.03